XALQ DEPUTATLARI QO’SHRABOT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 20-sentabr VI-90-96-7-97-K/24 Qo’shrabot tumani

Tumandagi geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risida

“Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunining 4-, 6-, va 10-moddalariga, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Respublika toponimika xizmatining 2024-yil 19-iyundagi 03/08-5950-sonli ekspertiza xulosasi, Viloyat hokimligi huzuridagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasining 2024-yil 3-iyundagi 07-07/399-sonli yig‘ilish bayoni, Geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha tuman komissiyasiyasining 2024-yil 3-iyundagi 13-01/46-sonli yig‘ilish bayoni hamda tuman hokimining maslahatchisi Q.Arziqulovning bildirgisiga asosan “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq, to‘qsoninchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Respublika toponimika xizmatining 2024-yil 19-iyundagi 03/08-5950-sonli ekspertiza xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tumanda geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha komissiyaning tumanda mavjud bo‘lgan, Jami; 20 ta geografik obyektlar (qabriston) larni nomlash va qayta nomlash ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (Q.Arziqulov) mazkur geografik obyektlarni Davlat reyestriga kiritish choralarini ko‘rsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati, “Istiqbol sari” gazetasi bosh muharriri (X.Mamarasulov) mazkur qarorni o‘rnatilgan tartibda e’lon qilinishini hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishi tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, aloqa, kommunal xo‘jaligi masalalari va aholiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha doimiy komissiyasi (Sh.Abdulaxatov), tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (Q.Arziqulov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



SHAKARBOYEV
DILSHOD
DAVRONOVICH

Xalq deputatlari Qo’shrabot tumani
Kengashining
2024-yil 20-sentabrdagi
VI-90-96-7-97-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi tomonidan tumandagi qabristonlarni nomlash bo‘yicha takliflar

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni (MFY)	Geografik obyektning hozirgi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasi xulosasi
1.	Qabriston	Qiyqim MFY	Nomsiz	Qiyqim	
2.	Qabriston	Shovana MFY	Nomsiz	Kesovli	
3.	Qabriston	Shovana MFY	Nomsiz	To‘labosti	
4.	Qabriston	Quvkalla MFY	Nomsiz	Zulmon ota	
5.	Qabriston	Jo‘sh ota MFY	Nomsiz	Buloqboshi	
6.	Qabriston	Yuqori Jo‘sh MFY	Nomsiz	Yo‘lo‘tar	
7.	Qabriston	Toz MFY	Nomsiz	Aymat	
8.	Qabriston	Jonbuloq MFY	Nomsiz	Mirhasan	
9.	Qabriston	Jonbuloq MFY	Nomsiz	Shamshar	
10.	Qabriston	Oqchopsoy MFY	Nomsiz	Yakkatol ota	
11.	Qabriston	Oqchopsoy MFY	Nomsiz	Savrak	
12.	Qabriston	Oqchopsoy MFY	Nomsiz	Archa ota	
13.	Qabriston	Oqchopsoy MFY	Nomsiz	Azlar ota	
14.	Qabriston	O‘rtasoy MFY	Nomsiz	Shayg‘al ota	
15.	Qabriston	O‘rtasoy MFY	Nomsiz	Gum	
16.	Qabriston	O‘rtasoy MFY	Nomsiz	To‘ra	
17.	Qabriston	Buloqboshi MFY	Nomsiz	Bo‘bak ota	
18.	Qabriston	Navkat MFY	Nomsiz	Moyboshi	
19.	Qabriston	Buloq MFY	Nomsiz	Buloq	
20.	Qabriston	Buloq MFY	Nomsiz	Sortovul	